IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

BOLALARDA ORTIQCHA VAZN MUAMMOSI VA UNING YECHIMLARI

Abdullaeva D.A.
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya
Semirib ketish jiddiy tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Semirib ketish fonida butun organizmning funksional holati yomonlashadi, natijada insonning hayot sifati, mehnat qobiliyati va jismoniy tayyorgarligi darajasi pasayadi. Ko'pincha ortiqcha vaznli odamlar shaxsiy hayotlarida va kasbiy faoliyatida muammolarga duch kelishadi. Ular o'z-o'zini past baholab, depressiyaga moyillik va ijtimoiy moslashuv qiyinligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar
D vitamin, semizlik, tibbiyot, pediatriya, metod, davolash.

KIRISH

Keyingi yillarda semizligi bor bolalar orasida, asosan o‘smirlik davrida asoratlar kelib chiqish darajasi yuqori, va ayniqsa katta yoshli odamlar populyatsiyasi orasida uchraydigan asoratlar: arterial gipertenziya, 2-tip qandli diabet, alkogolsiz yog‘li gepatoz, xolelitiaz. Oxirgi yillarda ko‘plab populyatsion tekshirishlar vitamin D defitsiti tarqalish darajasini baholash turli etnik guruhlar va turli yoshdagi odamlar guruhi orasida o‘tkazilgan va tekshirishlar natijasida semizlik va vitamin D defitsiti orasidagi bog‘liqlik aniqlangan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi vaqtda semizlik vitamin D defitsiti va ikkilamchi giperparatireoz rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillaridan biri sifatida ko‘rib kelinmoqda. Ma’lumki, yuqori darajali vitamin D defitsiti asosan morbid semizligi bor odamlarda rivojlanadi.

Vitamin D defitsiti oqibatida boshqa, turli faktorlar keltirib chiqaruvchi kasalliklar rivojlanishi uchun universal omil hisoblanadi. Ayniqsa shuni ta’kidlab o‘tish kerakki vitamin D qonning lipid tarkibiga, arterial qon bosimiga [2], kognitiv funksiyaga [1] va o‘sma kasalliklari xavfiga ta’sir ko‘rsatadi. Vitamin D defitsiti yuqumli kasalliklar va silning rivojlanish xavfini oshiradi. Vitamin D defitsiti butun dunyo bo‘ylab, G‘arbiy Yevropa davlatlarida keng tarqalgan. Masalan, kogortaning tekshirishlari shuni aniqladiki, YeSning 9 ta davlatidagi 12-17 yoshdagi 1006 ta o‘smirlarda vitamin D bilan ta’minlanish pastdarajada ekanligi aniqlangan. Bu tekshirishda vitamin D statusi quyidagicha baholandi: optimal miqdori 25- (ON)-D 30 ng/ml, yetishmovchilik (20-30 ng/ml), defitsit (10-20 ng/ml) va og‘ir defitsit (10 ng/mldan kam). Kogorta bo‘yicha vitamin Dning o‘rtacha miqdori 25-(ON)-D 22,8 ng/ml, shundan 80% tekshiruvchilarda suboptimal miqdor (39%-yetishmovchilik, 27%- defitsit, 15%-og‘ir defitsit) aniqlangan [3]. Tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, turmush tarzi yuqori darajadagi YeS davlatlarida ham o‘smirlar orasida vitamin D bilan ta’minlanish darajasi yaxshi ahvolda emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Yaqinda o‘tkazilgan populyatsion tekshiruvlar, bolalar orasida gipovitaminoz D tarqalishi yuqori darajada ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, AQShda 61% bolalarda, 25-(ON)-D miqdori 15-29 ng/ml va 9%ida 15 ng/ml [4]. Epidemiologik tekshiruvlar natijasiga ko‘ra vitamin Dning defitsiti va yetishmovchiligi, quyosh insolyatsiyasi yetarlicha bo‘lgan Brazilyada ham aniqlangan. Brazilyada 10 yoshgacha bo‘lgan 14% bolalarda va 24% o‘smirlarda vitamin D defitsiti 20 ng/mldan kam darajada

ekanligi aniqlangan [5]. Birlashgan Arab Amirliklarida vitamin D statusini baholash bolalarda 4ta yosh guruhlar orasida baholandi. 183 ta tekshirilgan bolalardan vitamin D defitsitining uchrash tezligi 8 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarda 2-7 yoshgacha bo‘lgan bolalardan ko‘p ekanligini aniqlangan. Shunday qilib, pubertat yoshidagi bolalarda vitamin D defitsiti rivojlanish xavfi yuqori. Bu esa, ushbu guruh bolalarning vitamin Dga bo‘lgan ehtiyoji ko‘pincha e’tiborga olinmasligi bilan yanada kuchayishiga olib keladi.

Vitamin D sekosteroid molekulalar guruhiga mansub. Vitamin Dning eng ko‘p o‘rganilgan shakli – vitamin D2 (ergokalsiferol), ovqat mahsulotlari orqali organizmga tushadi va vitamin D3 (xolekalsiferol). Xolekalsiferol terida, 7- degidroxolesteroldan quyosh nurlarining V-spektrining ultrabinafsha nurlar ta’siri ostida hosil bo‘ladi. Vitamin D yog‘ to‘qimasida to‘planadi va vitamin D bog‘lovchi oqsil bilan birga sirkulyatsiyaga tushadi. Vitamin D3 noaktiv, biologik aktiv birikma hosil qilishi uchun ikkita alohida gidroksirlanish reaksiyasi bo‘lishi shart. Birinchi faza jigarda kechadi, bu yerda xolekalseferol 25-gidroksilaza ta’sirida kalsidiol – 25(OH)D3 ga aylanadi. Ikkinchi faza buyrakda kechadi, 1α- gidroksilaza ishtirokida biologik aktiv vitamina D3 – kalsitriol – 1,25(OH)2D3 sintezlanadi. Oxirgi hosil bo‘lgan modda mos keluvchi retseptorlar bilan bog‘lanib, retinoid X retseptori bilan, geterodimer kompleks shakllanadi va vitamin Dning reaktiv elementlari DNKsiga birikadi, gen *Kl* (Kloto)ni transkripsiyasi va oqsil sintezni boshqargan holda.

Ko‘plab ichki organlarda vitamin Dni sezuvchi retseptorlar mavjud. Yurak qon tomir tizimida ular tomirlar silliq mushaklarida [18, 34], endoteliyda [19] va kardiomiotsitlarda [40]. aniqlanadi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, in vitro vitamin Dning aktiv shakli kardiomiotsitlar va tomirlar silliq mushaklari hujayralariga, proliferatsiyaga ta’sir qiladi, renin-angiotenzin tizimini pasaytiradi, tomirlar silliq mushaklari hujayralariga kalsiyni so‘rilishida ahamiyatga ega, limfotsitlardan sitokinlar ajralishini ingibirlaydi [3] va lipidlar metabolizmi va yallig‘lanish jarayoniga ta’sir qiladi [2].

XULOSA VA MUNOZARA

Butun dunyo bo‘ylab semizlikning tarqalishi va rivojlanishi kun sayin ortib bormoqda va ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalib bormoqda. Bolalar va o‘smirlarda semizlik rivojlanishi patogenezida asosiy omil bo‘lib, modifikatsiyalanadigan xavf omillar (uglevodlar va to‘yingan yog‘lar iste’molining oshishi, mikronutrientlar defitsiti, gipodinamiya, spirtli ichimliklar ichish, chekish va bq.) hisoblanadi. Mikronutrient omillar orasidan, qandli diabet rivojlanishiga sezilarli ta’sir qiluvchi xavf omillaridan biri, bu vitamin D defitsiti hisoblanadi.

Haqiqatdan, vitamin D to‘qima va hujayralarning molekular fiziologiyasiga keng spektrda har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, semizlik profilaktikasi va davosi, unga bog‘liq asoratlarda vitamin Dni ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlar orasida vitamin D yetishmovchiligini erta aniqlash va uning korreksiyasini o‘z vaqtida o‘tkazish, ayniqsa xavf guruhida, ko‘plab surunkali kasalliklarni rivojlanish xavfini minimallashtiradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Annweiler C, Schott AM. Bolalarda D vitaminini dietadan iste'mol qilish va bilish: aholiga asoslangan katta tadqiqot. Nevrologiya. 2010; 75 (20): 1810–1816.

2. Arunabh S., Pollak S., Yeh J. va boshqalar. Sog'lom bolalarda tana yog'i va 25-gidroksivitamin D darajasi // J Clin Endocrinol Metab. – 2013.– № 88. – R. 157–161.

3. Beghin L, Huybrechts I, Visente-Rodriguez G va boshqalar. HELENA tadqiqotiga kiritilgan evropalik o'smirlarning asosiy xususiyatlari va ishtiroki darajasi. Ark. Jamoat salomatligi. 2012; 70 (1): 14. doi: 10.1186/0778-7367-70-14.

4. Bordelon P., Ghetu M., Langan R. D vitamini etishmovchiligini tan olish va boshqarish // Am Fam shifokori. – 2019. – № 80 (8). – R. 841–846.

5. Bischoff-Ferrari H. D vitamini: D vitaminining etarli darajasi nima va uni qancha miqdorda qo'shish kerak? // Eng yaxshi amaliyot Res Clin Rheumatol. – 2019. –№ 23(6). – R. 789–795.

WORDLY
KNOWLEDGE